# Fuqaro va mehnat muhofazasi bo’limi

### Fuqaro va mehnat muhofazasi bo’limi boshlig’i

Jumaniyazov Rustam Raximberganovich

+99871 237-34-98

---

### Fuqaro va mehnat muhofazasi bo’limi

Fuqaro va mehnat muhofazasi boʻlimi Toshkent irrigasiya va qishloq xoʻjaligini mexanizasiyalash institutining tarkibiy boʻlinmasi boʻlib, boʻlim Oʻzbekiston Respublikasi Favkulodda vaziyatlar vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat yongʻin xavfsizligi xizmati, Oʻzbekiston Respublikasi Suv xoʻjaligi vazirligi qarorlari va buyruqlari, institut rektori buyruqlari va mazkur Nizomdan kelib chiqqan xolda institut Ishlar boshqarmasi boshligʻi tasdiqlagan ish rejasi buyicha oʻz vazifalarini amalga oshiradi.

### Vazifalari

- Ma'muriyat va kasaba uyushmasi bilan kelishgan xolda, talaba yoshlar xamda professoroʻqituvchilarni ijtimoiy, iqtisodiy jixatdan muxofaza etish borasida inistitut miqyosida rivojlanish masalalarini aniq xisobga olib, xar yilik asosiy yunalishlar bitimi va jamoa shartnomalarini tuzishda katnashish:
- Institutda mehnatning tibbiytexnikaviy sharoitlarini pasportlashtirishni oʻz vaqtida oʻtkazish uchun zarur choralarni koʻrish va mehnatni muxofaza qilish buyicha amaldagi qoida xamda me'yorlarga muvofiq oʻtkazilishini nazorat qilib borish:
- Namunaviy tizim me'yorlariga asosan, ishchi va xizmatchilarga bepul maxsus ustbosh, oyok kiym va boshqa shaxsiy muxofaza vositalarini berilishini tartibini ishlab chiqish, bu me'yorlarga Toshkent shaxri Mehnatni va axolini muxofaza qilish boshkarmasi xamda Inis+titut kasaba uyushmasi bilan kelishilgan xolda oʻzgartirish va qushimchalar kiritish;
- Favkulodda vaziyatlar va mehnatni muxofaza kilish xamda yongʻin xavfsizligiga oid maxsus burchaklar, koʻrgazmali qurollar va eslatmalar bilan ta'minlash;
- Professoroʻkituvchi va xodimlarni mehnatni muxofaza qilii tugʻrisidagi bilim saviyasini tekshirish va tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish tartibini belgilash. Malakaviy komissiya tarkibini rektor tasdiklaydi.